

## 2020-yil yanvar-aprel oylarida Toshkent shahrida xizmatlar sohasining rivojlanishi

Butun dunyoda iqtisodiy rivojlanishning eng muhim qonuniyatlaridan biri, iqtisodiy o'sishning o'zaro bog'liqligi va milliy iqtisodiyotda xizmatlarning tobora ortib borayotgan roli hisoblanadi, bu xizmatlar sohasida foydalaniladigan mehnat, moddiy va moliyaviy resurslar ulushining ortishi bilan izohlanadi.

Jamiyatning rivojlanishi hamda ishlab chiqarish kuchlarining o'sishi bilan xizmatlar sohasining muayyan rivojlanishi yuz beradi. Bu yerda, xususan, sohada ish bilan bandlikning oshishi, mehnatni texnik jihozlanishining o'sishi va ilg'or texnologiyalarning joriy etilishi kuzatilmoqda.

### 2020-yil yanvar-aprel oylarida xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari



Ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi -  
21227,8 mlrd. so'm



Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar ulushi - 74,3 %



Ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmining o'sish sur'atlari - 101,6 %

**Xizmatlar sohasi** bu — korxonalar va tashkilotlar, shuningdek, jismoniy shaxslar tomonidan ko'rsatiladigan turli xildagi xizmatlar, ishlab chiqarishni o'z ichiga olgan umumlashtirilgan toifadir. Ushbu sohani ko'pincha rivojlangan zamonaviy infratuzilma tufayli sanoatdan keyingi iqtisodiy tuzilma tarzida ko'riladi.

Xizmatlar sohasi ishlab chiqarish unumdorligi va samaradorligini oshirishga yordam beradigan turli xil faoliyat turlarini o'z ichiga oladi.

Mazkur soha xalqaro korporatsiyalar, banklar, aviakompaniyalar, kompyuter markazlari, telekommunikatsiyalar, sug'urta, yuridik va konsalting firmalari, davlat va nodavlat tashkilotlar, shuningdek, notijorat tashkilotlarni qamrab oladi.

**2020-yil 1-may holatiga ko'ra,  
xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan  
korxonalar va tashkilotlar to'g'risida ma'lumot**  
*(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)*


Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni - 65 005 birlikda

Ularning umumiy sonidagi ulushi -  
74,3 %

O'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'atlari -  
116,8 %




**2020-yil 1-may holatiga ko'ra, faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar tarkibi, % da**  
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



2020-yil 1-may holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning ulushi – 74,3 %, sanoat - 16,8 %, qurilish - 8,0 % ga yetdi va atigi 0,9 % qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi sohasi hissasiga to'g'ri keldi.

**2020-yil 1-may holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha tarkibi, % da**  
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar tarkibida, savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxonalar va tashkilotlar yuqori ulushni (35,3 %) egallaydi. Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmat ko'rsatuvchi korxonalar va tashkilotlarning ulushi 9,5 % ni tashkil etdi.




*Dastlabki ma'lumotlar*

Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar tarkibida tashish va saqlash faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxonalar va tashkilotlarning ulushi 5,4 % ga yetdi. Axborot va aloqa faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxonalar va tashkilotlarning jami xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar tarkibidagi ulushi 5,3 % ga teng bo'ldi. Sog'liqni saqlash, shuningdek, ijtimoiy xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning ulushi 2,4 % ni tashkil etdi.

**Ma'lumot uchun:** 2019-yil 1-may holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida 55,6 mingta korxonalar va tashkilotlar faoliyat ko'rsatgan. Ularning umumiy tarkibida savdo xizmatlari – 32,4 %, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar - 9,8 %, tashish va saqlash - 5,6 %, axborot va aloqa - 5,2 %, sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish - 2,5 % hamda boshqa turdagi xizmat ko'rsatuvchi tashkilotlar - 44,5 % ni tashkil etgan.

Kichik tadbirkorlik subyektlari milliy iqtisodiyotning ajralmas va muhim bo'lagi bo'lib, ko'plab iqtisodiy va ijtimoiy muammolarni hal qilish, xizmatlarni rivojlantirish hamda insonlarning farovon hayotini ta'minlash uchun yetakchi kuchga aylandi.

**2020-yil 1-may holatiga ko'ra, faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy sonida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi, % da**  
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar umumiy sonida kichik tadbirkorlik subyektlarining hissi 84,6 % ga to'g'ri keladi.

2020-yil 1-may holatiga ko'ra, yirik tashkilotlar ulushi 15,4 % ni tashkil etdi

Kichik tadbirkorlik subyektlariga tegishli faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarining o'sishi, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar umumiy sonining o'sishiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi.

## 2020-yil 1-may holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari to'g'risida ma'lumot (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



2020-yil 1-may holatiga ko'ra, o'tgan yilning shu davriga nisbatan xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari soni 8 708 taga ko'paydi.

Natijada, ularning soni 54 966 tani tashkil etdi va o'sishi esa 18,8 % ga oshdi. Faoliyat ko'rsatayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining umumiy sonida xizmatlar sohasida band bo'lganlarning ulushi 71,2 % ga yetdi.

***Taqqoslash uchun: o'tgan yilning shu davrida xizmatlar sohasida band bo'lgan kichik korxonalar va tashkilotlar sonining ulushi 83,1 % ekvivalentida qayd etildi.***

Hozirgi kunda iqtisodiyotning muhim tarmoqlaridan biri bo'lgan xizmatlar sohasining o'ri juda katta ahamiyatga egadir.

*Dastlabki ma'lumotlar*

Xizmatlar sohasi xizmatlarning tabiati, ularning maqsadi, faoliyat turlari va xizmat ko'rsatish jarayonlarining o'ziga xos xususiyatlari tufayli turli xil funksiyalarga, manbalarga, ulanishlarga ega bo'lgan murakkab va o'ziga xos ijtimoiy-iqtisodiy tizimdir.

## Ishlab chiqarilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2020-yil yanvar-aprel oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 21 277,8 mlrd. so'mga yetdi. Uning nominal hajmi 2 749,6 mlrd. so'mga oshdi. Taqqoslama ekvivalentda, o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati 101,6 % ni tashkil etdi.



**Xizmatlar** – iste'molchilar (yuridik va jismoniy shaxslar) holatini o'zgartiruvchi yoki tovarlar, xizmatlar va moliyaviy aktivlar bilan ayirboshlashiga ko'maklashadigan ishlab chiqarish faoliyatining natijasi hisoblanadi.

Xizmatlar sohasining rivojlanishi hozirgi zamon iqtisodiyotida muhim ahamiyat kasb etadi. Xizmatlarda ilmiy bilimlar, nomoddiy shakldagi to'plamlar, axborot texnologiyalari, shuningdek, tadbirkorlik faoliyati integratsiyasi kabi iqtisodiy o'sishning asosiy omillari shakllanadi.

Bugungi kunda xizmatlar sohasi O'zbekiston iqtisodiyotining jadal rivojlanayotgan tarmoqlaridan biri hisoblanadi.

*Dastlabki ma'lumotlar*

Xizmatlar sohasi ishlab chiqarish unumdorligini va samaradorligini oshirishga yordam beradigan turli xil faoliyat turlarini o'z ichiga oladi. Ushbu faoliyatning yakuniy natijasi tayyor mahsulot emas, balki korxonalariga, shuningdek, jismoniy shaxslarga - yakuniy iste'molchilarga taqdim etiladigan xizmatlar ko'rsatish hisoblanadi.

**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ishlab chiqarilgan  
xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari**  
(2020-yil yanvar-aprel oylarida)


	Hajmi, mlrd. so'm	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, % da
<b>Xizmatlar - jami</b>	<b>21 227,8</b>	<b>101,6</b>
shu jumladan:		
Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	2 003,2	112,4
Moliyaviy xizmatlar	7 272,4	128,1
Transport xizmatlari	1 978,9	82,3
shu jumladan: avtotransport xizmatlari	1 240,1	88,1
Yashash va ovqatlanish xizmatlari	712,8	79,2
Savdo xizmatlari	4 959,3	96,7
Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	811,5	83,0
Ta'lim sohasidagi xizmatlar	916,1	92,0
Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	351,0	83,5
Ijara xizmatlari	389,2	83,0
Kompyuter va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	84,6	82,1
Shaxsiy xizmatlar	228,3	81,9
Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	579,1	87,5
Boshqa xizmatlar	941,4	81,7

*Dastlabki ma'lumotlar*

Hozirgi kunda xizmatlar sohasi an'anaviy faoliyat turlari bilan cheklanib qolmay, jamoat hayotidagi ishtirokini doimiy ravishda kengaytirib boradi, ijtimoiy ishlab chiqarishga qo'shilib boradi va iqtisodiyotning deyarli barcha sohalari bilan o'ziga xos aloqalar orqali chambarchas bog'liqdir.

Davlatning iqtisodiy siyosatida axborot va aloqa xizmatlari (mobil aloqa, Internet, raqamli televideniye va boshqalar) kabi zamonaviy xizmat turlarini, shuningdek, zamonaviy moliyaviy xizmat turlarini (bank xizmatlari, lizing, sug'urta, audit, konsalting va boshqalar) rivojlantirish alohida ahamiyatga ega.

**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlarining o'sish sur'atlari, 2019-yil yanvar-aprel oylariga nisbatan, % da (2020-yil yanvar-aprel)**



Eng yuqori o'sish sur'atlari moliyaviy xizmatlar (128,1 %), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (112,4 %), savdo xizmatlari (96,7 %), ta'lim sohasidagi xizmatlar (92,0 %), shuningdek, me'morchilik sohasidagi xizmatlar (87,5 %) qayd etildi.


Yuqori bo'lmagan o'sish shaxsiy xizmatlar (81,9 %), boshqa xizmatlar (81,7 %), shuningdek, yashash va ovqatlanish xizmatlari (79,2 %) belgilandi.



*Dastlabki ma'lumotlar*

Transport xizmatlari hajmining o'sishi, yuk va yo'lovchilarni tashish xizmatlariga talabning oshishi bilan bog'liq bo'lib, bu o'z navbatida sayyohlik faoliyatining jadal rivojlanishi, savdo tarmog'ining kengayishi, qurilish loyihalari hajmini yanada kengaytirishga, bino va inshootlarni rekonstruksiya qilish, shuningdek, transport va logistika infratuzilmasini rivojlantirish bilan bog'liq.

## Transport turlari bo'yicha transport xizmatlarining tarkibi, % da (2020-yil yanvar-aprel oylari)



Transport xizmatlari umumiy hajmida avtomobil transporti xizmatlarining ulushi 62,7 % ni tashkil etadi.

Bundan tashqari, saqlash va yordamchi transport xizmatlari 32,9 % tashkil qiladi.


Temir yo'l transporti orqali ko'rsatilgan xizmatlar – 2,4 %, kuryerlik va pochta faoliyati ulushi esa 2,0 % ga yetdi.

Har bir mamlakatning iqtisodiy hayotida muhim o'rin tutuvchi savdo sohasi ishlab chiqarish va iste'mol o'rtasidagi aloqani ta'minlaydi, shuningdek, tovarlarni ishlab chiqarish hajmi va tarkibiga, ularning turlarini yaxshilanishiga va sifatini oshishiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi.


**Savdo** bu - tovarlarning aylanishini, ularning ishlab chiqarish sohasidan iste'mol sohasiga o'tishini ta'minlaydigan iqtisodiyot sohasidir. Ma'lum bir davlat ichida savdo tovarlarni zarur iste'molchiga yetkazib berish vazifasini bajaradi. U ulgurji va chakana savdoga bo'linadi.

2020-yil yanvar-aprel oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmida savdo xizmatlarining ulushi 23,4 % ni tashkil etib, bu 4 959,3 mlrd. so'mga teng bo'ldi.


## Savdo xizmatlari tarkibi, % da (2020-yil yanvar-aprel oylarida)



Avtomobillar va mototsikllar ulgurji va chakana savdosi, jumladan, ularni ta'mirlash xizmatlarini qo'shgan holda



Ulgurji savdo xizmatlari (avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari)




Avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo bo'yicha xizmatlar

Joriy davrda chakana savdo xizmatlari ulushi, umumiy savdo xizmatlari hajmining qariyb to'rttdan uch qismiga, aniqrog'i 48,3 % ga to'g'ri keladi.

Ulgurji savdo xizmatlarining ulushi (avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari) 45,2 % ga yetdi. Avtomobillar va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi bo'yicha xizmatlar, jumladan, avtomobillar va mototsikllarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlarni qo'shgan holda, savdo xizmatlarining umumiy hajmidagi ulushi 6,5 % ni tashkil etdi.

## Moliyaviy xizmatlar (2020-yil yanvar-aprel oylarida)



Moliyaviy xizmatlar hajmi - moliyaviy vositachilik hisobidan olingan foizli daromadlar hajmi (xizmatlar uchun belgilangan to'lovlar miqdorida), shuningdek, moliya muassasasi tomonidan ssuda berish yoki depozitni saqlash bo'yicha xizmatlari uchun to'lanadigan haq hisobiga ko'ra olinadi.

Zamonaviy bank xizmatlarini taqdim etish uchun shart-sharoitlar yaratishda, innovatsion bank texnologiyalarining joriy etilishi orqali chakana xizmatlarni ko'rsatishga ixtisoslashgan "raqamli" banklar va ularning bo'linmalari faoliyatini tashkil etish, masofadan turib bank xizmatlarini takomillashtirish va to'lov tizimini yanada rivojlantirish, moliyaviy xizmatlarning jadal rivojlanishiga xizmat qilmoqda.

## Moliyaviy xizmatlar tarkibi, % da (2020-yil yanvar-aprel oylarida)

Moliyaviy xizmatlar umumiy hajmida sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlarning ulushi 92,3 % ni tashkil etadi.


Joriy davrda sug'urta xizmatlarining ulushi 3,5 % oralig'ida qayd etildi.



Moliyaviy va sug'urtalash xizmatlariga nisbatan yordamchi xizmatlarning umumiy moliyaviy xizmatlar hajmidagi ulushi yuqori ko'rsatkichga ega emas va u 4,2 % ni tashkil etadi.

Rivojlangan davlatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, AKT rivojlanishi mamlakatning raqobatbardoshlik darajasiga bevosita ta'sir qiladi, sizga katta hajmdagi ma'lumotlarni to'plash va umumlashtirishga imkon beradi, strategik darajada boshqaruv uchun katta imkoniyatlar ochadi.

## Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (2020-yil yanvar-aprel oylarida)



2020-yil yanvar-aprel oylarida aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining hajmi 2 003,2 mlrd. so'm darajasida belgilandi.

O'tgan yilning mos davriga nisbatan ushbu turdagi xizmatlarning o'sish sur'ati 112,4 % ga yetdi.

Ko'rsatilgan bozor xizmatlarining umumiy hajmidagi ulushi 9,4 % ni tashkil etdi.


AKTdan faol foydalanish infratuzilmasi yuqori kadrlar salohiyati va yangi ko'rinishdagi texnika va texnologiyalarga asoslangan.



## Ta'lim sohasidagi xizmatlar (2020-yil yanvar-aprel oylarida)




2020-yil yanvar-aprel oylarida ta'lim sohasidagi xizmatlar hajmi 916,1 mlrd. so'mga yetib, bozor xizmatlari umumiy hajmidagi ulushi 4,3 % ni tashkil etdi. O'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 92,0 % ni tashkil etdi.



Ma'lumki, fuqarolarni yuqori sifatli va hamyonbop narxlardagi ta'lim bilan ta'minlash, jamiyat taraqqiyotini, uning kelajagini aniq belgilab beradigan vazifadir.

## Hududlar kesimida ta'lim sohasidagi xizmatlarning hajmi, mlrd. so'm (2020-yil yanvar-aprel oylarida)



Ta'lim sohasidagi xizmatlarning yuqori hajmi Olmazor (152,9 mlrd. so'm), Yunusobod (144,7 mlrd. so'm), Chilonzor (140,3 mlrd. so'm), Mirobod (120,4 mlrd. so'm) va Mirzo Ulug'bek (112,1 mlrd. so'm) tumanlarida qayd etildi.

Nisbatan past ko'rsatkichlar Bektemir (4,2 mlrd. so'm), Sirg'ali (16,5 mlrd. so'm), Yashnobod (42,4 mlrd. so'm), va Yakkasaroy (46,0 mlrd. so'm) tumanlarida belgilandi.

Yashash bo'yicha xizmatlar hajmi, qisqa muddatli turar-joy bilan ta'minlash bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar (mehmonxonalar va boshqa turar-joylar) qiymatini o'z ichiga oladi.

**Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar**  
(2020-yil yanvar-aprel oylarida)

O'tgan yilning shu davriga nisbatan yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning o'sish sur'ati atigi 79,2 % ni tashkil etdi, ularning hajmi esa 39,9 mlrd. so'mga kamaydi va 712,8 mlrd. so'mga yetdi.

Ushbu davrda ularning bozor xizmatlari umumiy hajmidagi ulushi atigi 3,4 % ni tashkil etdi.



**712,8 mlrd. so'm** Xizmatlar hajmi

**3,4 %** Xizmatlarning jami hajmidagi ulushi

2019-yil yanvar-aprel oylariga nisbatan:


**79,2 %** O'sish sur'ati

**39,9 mlrd. so'mga** Hajmning kamayishi



Oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar - oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar yetkazib berish bo'yicha qo'yilgan ustamadan tashqari, ovqat tayyorlashda ishlatilgan va qayta ishlanmagan holda sotilgan mahsulotlar qiymatini o'z ichiga oluvchi aylanma qiymatidir.

**Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar tarkibi**  
(2020-yil yanvar-aprel oylarida)



● Oziq-ovqat va ichimlik bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar  
● Yashash xizmatlari

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning umumiy hajmida oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlarning ulushi 74,2 % bilan ustunlik qiladi. 2020-yil yanvar-aprel oylarida yashash bo'yicha xizmatlar ulushi 25,8 % ni tashkil etdi.


Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar hajmi bu - sog'liqni saqlash muassasalarining tibbiy va sanitariya xizmatlari, shuningdek, tashkilotlar va tibbiyot korxonalari, stomatologiya, fizioterapevtik, gomeopatik poliklinikalar, kosmetologiya klinikalari, giyohvand moddalarni iste'mol qiluvchilarni davolash ambulatoriyalari, laboratoriya va sanitariya-epidemiologiya profilidagi muassasalar tomonidan ko'rsatilgan bozor xizmatlarining qiymatidir.

Bugun respublikaning barcha hududlarida ixtisoslashtirilgan ilmiy va amaliy tibbiyot markazlarida kardiologiya, jarrohlik, ko'z mikroxirurgiyasi, urologiya, terapiya va tibbiy reabilitatsiya, endokrinologiya, pulmonologiya va ftiziatriya, akusherlik va ginekologiya, pediatriya va boshqa sohalarda yuqori sifatli tibbiy xizmatlar ko'rsatilmoqda.

## Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar (2020-yil yanvar-aprel oylarida)

2020-yil yanvar-aprel oylarida sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlarning hajmi 3,0 mlrd. so'mga kamaydi va 351,0 mlrd. so'mga yetdi. Xizmatlar umumiy hajmida ularning ulushi 1,7 % ni tashkil qildi.

O'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati 83,5 % ni tashkil etdi.






*Dastlabki ma'lumotlar*

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar, iste'molchilarning daromad darajasi, didi va xohish-istaklariga qarab differensiyalanadi.

Ta'kidlash joizki, jismoniy va yuridik shaxslarning xizmatlarga bo'lgan ehtiyojlarini qondirish uchun xizmatlar sohasini hududlarda muvaffaqiyatli faoliyat ko'rsatishini ta'minlamasdan turib, respublika iqtisodiyotining yirik tarmog'i sifatida xizmatlar sohasini jadal rivojlantirib bo'lmaydi.

Xizmatlarning umumiy hajmida Yunusobod tumanining ulushi eng ahamiyatli bo'lib, 17,8 % ni tashkil etadi. Bu aholining real daromadlari boshqa tumanlardan ko'ra yuqoriroq ekanligi bilan izohlanadi.

## Hududlar kesimida ko'rsatilgan bozor xizmatlari tarkibi, % da (2020-yil yanvar-aprel oylarida)



Eng katta ulush Mirobod (17,1 %), Yashnobod (12,1 %), Chilonzor (10,8 %) va Shayxontohur (10,2 %) tumanlarida qayd etildi.

Xizmatlar sohasining nisbatan past ko'rsatkichlari Olmazor (5,5 %), Yakkasaroy (5,4 %), Uchtepa (4,5 %), Sirg'ali (4,2 %) va Bektemir (2,6 %) tumanlarida kuzatildi.

**Ma'lumot uchun: 2019-yil yanvar-aprel oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmida Yunusobod tumanining ulushi 17,5 % ni tashkil etgan.**

**Bektemir tumanining ulushi esa eng past - 2,7 % kuzatilgan.**

Zamonaviy O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish istiqbollari, milliy va mahalliy manfaatlarini hisobga olgan holda, respublikaning har bir iqtisodiy tumani va viloyatlarining barcha resurslaridan oqilona foydalanishga bog'liqdir.

Ko'rilayotgan davrda resurslardan samarali foydalanish natijasida hududlar bo'yicha Yunusobod tumani ko'rsatilgan bozor xizmatlarining umumiy hajmini o'sishiga ta'sir ko'rsatdi. O'tgan yilning shu davriga nisbatan ushbu hududda ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 536,6 mlrd. so'mga oshdi va 3 774,9 mlrd. so'mga yetdi.

Shu bilan birga, nisbatan yuqori ko'rsatkichlar Mirobod (3 624,0 mlrd. so'm), Yashnobod (2 568,8 mlrd. so'm), Chilonzor (2 298,7 mlrd. so'm) va Shayxontohur (2 174,4 mlrd. so'm) tumanlarida qayd etildi.

Ma'lumki, xizmatlar sohasining rivojlanish darajasi aholining hududiy va ijtimoiy harakatchanligini, yangi xo'jalik hududlarini o'zlashtirish, ishlab chiqarish samaradorligini va moddiy mahsulotlar iste'molini oshirishni ta'minlaydi.

*Dastlabki ma'lumotlar*

### Hududlar bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari (2020-yil yanvar-aprel oylarida)

	Hajmi, mlrd. so'm	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, % da
<b>Toshkent shahri</b>	<b>21 227,8</b>	<b>101,6</b>
tumanlar:		
Bektemir tumani	554,1	98,3
Mirzo Ulug'bek tumani	1 941,9	94,1
Mirobod tumani	3 624,0	108,0
Olmazor tumani	1 168,9	104,0
Sirg'ali tumani	886,9	72,0
Uchtepa tumani	965,6	98,1
Chilonzor tumani	2 298,7	111,4
Shayxontohur tumani	2 174,4	103,1
Yunusobod tumani	3 774,9	104,7
Yakkasaroy tumani	1 155,4	82,1
Yashnobod tumani	2 568,8	113,4
Tumanlardan tashqari	114,1	89,8

Ko'plab xalqaro ekspertlarning fikriga ko'ra, xizmatlar sohasini jadal rivojlantirish mamlakat iqtisodiyotida zamonaviy tarkibiy o'zgartirishlarni muvaffaqiyatli amalga oshirishda zaruriy shart hisoblanadi.

Xizmatlar sohasining tarmoqlar tarkibi va texnologiyalari tobora murakkablashib borishi, mahsulot sifati va rang-barangligini oshirish, shuningdek, yuqori texnologiyali xizmatlar tarmoqlarining jadal rivojlanishi korxonalar va tashkilotlar, uy xo'jaliklarining samaradorligi va raqobatbardoshligini yanada oshirishga yordam beradi.

**Xizmatlar sohasi statistikasi bo'limi**
**71-230-88-15**